

## “QORAKO`Z MAJNUN” HIKOYASI OBRAZLARINING BADIY TALQINI

Choriyev Nurbek Jumanazar o`g`li

Termiz davlat universiteti o`zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “O`zbekiston Qahramoni” unvoni sohibi Said Ahmadning “Qorako `z majnun” asari qahramonlari badiiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu asar ko`lamining bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** “Qorako `z majnun”, obraz, hikoya, talqin, syujet, manqurt.

Nafaqat o`zbek xalqining, balki butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixor ko`zgusi bo`lgan ulug` yozuvchi Said Ahmad o`zidan kitobxonlar ko`nglini bir o`qishdayoq zabit etadigan abadiy va durdona asarlar qoldirdi. Bunday asarlar sirasiga kiruvchi mo`jazgina “Qorako `z majnun” hikoyasi ham kitob ixlosmandlarining sevimli asariga aylangan. Garchi bu hikoya hajmi bor-yo`g`i 15 sahifadan iborat bo`lsa-da, uning ma`no ko`lami va mavzu g`oyasi anchayin katta va mashhur asarlarni dog`da qoldira oladi. Hikoya - inson hayotidagi u yoxud bu yorqin hodisani, ijtimoiy yoxud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bog`liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asar. Bu asar, odatda, kishi hayotidagi g`oyatda muhim voqealari tasviriga bag`ishlanadi va unda shu voqeaga qadar va undan so`ng ro`y beradigan voqealar batafsil bayon qilinmaydi. Hikoya- muayyan vaziyatdagi kishi hayotining bir parchasi.

Ushbu hikoyaning asl mavzusida ona va bola munosabati, ular o`rtasidagi mehrmuruvvat ildizlari, inson bilan hayvon o`rtasidagi vafodorlik hissi, aynan bugungi kunda odamlar orasida yetishmayotgan muhabbat tuyg`usi, dinga bo`lgan kuchli e`tiqod, har qanday holatda ham qadriyatlarning ustun turishi yaqqol ochib berilgan. Ulug` adib ushbu mavzularni personajlar taqdiriga shunday qorishtirib yuborganki, asarning har bir obrazi o`ziga xos alohida mavzuning bir logotipi desak, mubolag`a bo`lmaydi. Asar nomlanishiga keladigan bo`lsak, qorako `z majnun - bu shunchaki oddiy bir it, ya`ni uy havonining nomi bo`lib kelmaydi, balki bu personaj orqali jamiyatimizda yetarli darajada yetishmayotgan sadoqatilik tushunchasining qanday bo`lishini ko`rsatib bergen badiiy va ramziy obraz hisoblanadi. ”Obraz” termini rus tilidan olingan bo`lib, o`zbekcha tarjimada “aks” degan ma`noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham “obraz” deb aytildi. Biroq, bilamizki, so`zning lug` aviy ma`nosini bilan istilohiy ma`nosini farqlanadi: lug` aviy ma`no bilan istilohiy ma`no orasida tutash nuqtalar bo`lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma`noni tushunmog`i lozim bo`ladi. Shunga ko`ra, biz “obraz” deganda adabiyot va san`atning tafakkur shakli bo`lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.

Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako `z bilan farzandining uyi tomon mehmonga boradi. Ularning borish va kelish jarayoni juda qiziq. Yo`l bo`yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, o`zini tutishi, shamoldek yelib-yugurishi, xafagarchiligi shodligi, xullas, uning har bir holatini mahorat bilan tasvirlaydi. It yo`lda o`zidan kichik itni tuproqqa qorishtirib keladi, kattasiga hujum qilganda esa o`zi ham shu ahvolga tushadi, demak, bu hayotda har bir inson o`z o`rnini va haddini bilib ish tutishi lozim. Kampir itini o`z oila a`zosidek e`zozlaydi, u bilan suhbat qurib, murojaat qiladi: “Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar

opangnikigami ? Dilbar opang domda turadi , itdan hazar qiladi . Endi nima qilamiz? Mayli , shunikiga boramiz. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o`ynab turasan “ , - deb bemalol gapiradi. Ular o`rtasidagi bo`layotgan jarayonlarga e`tibor bersak , inson hamda itning qanchalik qadrdon ekanini ko`rishimiz mumkin. Shu o`rinda yana bir voqeani yodga olsak , Saodat aya betob bo`lib , shifoxonaga tushib qoladi , o`sha paytda vafodor do`sht , ya`ni Qorako`z bir oy davomida bag`rini qorga berib deraza tagida o`z sohibining tuzalishini kutib yotgan , ammo farzandlar esa mahalla-ko`y gapi bilan zo`rg`a bir-ikki xabar olgan , xolos. Demak, ba`zan biz yaqinlarimizdan topolmayotgan sodiqlik va g`amxo`rlikni hayvonlardan uchratishimiz mumkin bo`ladi. Asar epigrafiga nazar tashlaydigan bo`lsak , unda jannatga kiradigan o`n nafar hayvondan biri -bu “As`hobi kahfning vafodor iti ekanligi yozib o`tilgan va dono xalqimiz ham “Vafoni itdan o`rgan “ , - deb bejiz aytmagan.

Hayot materialini badiiy aks ettirishda yozuvchi rang-barang tasvir vositalaridan foydalanadi. Syujet mana shunday vositalardan birdir. Syujet (fransuzcha - predmet , mazmun ) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmuyi , kengroq ma`noda , konkret voqealar tizmasida namoyon bo`ladigan xarakterlar tarixi , poetik fikr - tuyg`ular oqimi. Asar syujeti murakkabliklar yoki tushunarsiz holatlardan yiroq , o`qilganda insonni o`ziga tez va oson jalb qiladi. Voqealar rivoji boshqa asarlardan farq qilib , yozuvchi hayotda aniq va ravshan holatlarni shunday go`zal tasvirlaganki , uni o`qiganimizda har bir hodisa ko`z o`ngizmizda yaqqol gavdalaniadi , negaki undagi voqealar haqiqiy hayotda bo`ladigan real holatlardan iborat.

Hikoyadagi itning eng yaqin insoni va bosh qahramonlardan biri Saodat ayadir. Uning tabiat samimiy , muslima buvilarga xos bu dunyosini ham , u dunyosini ham birdek o`ylaydigan , qo`li duoda , qalbi esa Allohda bo`lgan kampirlarning umumlashma obrazi. U har kuni bomdod namozida vafot etgan turmush o`rtog`i Turobga atab Qur'on tilovat qiladi , armiyaga ketib , rus shaharlarida qolib ketgan o`g`li Bo`rixonni eslaydi , umrining bahori o`tib ketayotgan qizi Qumri uchun Allohdan baxt so`rardi. Bir kuni ona qizining uyidan qaytib kelganida o`g`li Bo`rixon uyiga qaytib kelganini ko`radi va o`ttiz ikki yillik sog`inch hissi o`z nihoyasiga yetadi. Farzandining qaytib kelishi bamisol mo`jizadek holat edi , biroq Bo`rixon na oila a`zolarini tanidi , na uni aka -singillari eslay olishdi. Eng ayanchlisi shu bo`ldiki, u hatto o`z tilini ham unutgan edi va yana bir jihat bor ediki, bu o`z dinidan kechib , xristian diniga o`tganligini hozirgi kunning zamonaviy manqurtlik holati desak , noto`g`ri bo`lmaydi. Manqurt -o`tmishda, ba`zi ko`chmanchi xalqlarda , bandi ( asir) tushganlarning sochi qirtishlab olingan boshiga yangi so`yilgan tuyaning bo`yin terisi qoplanib, terining boshni tobora qattiq qisishi oqibatida xotirasi , aql - idroki , umuman , insonga xos xislat - fazilatlaridan mahrum etilgan shaxs. Asardagi Bo`rixon ham aynan din-diyonatidan kechgan , o`zligini unutgan , tili va qadriyatlarini yodidan chiqargan insonlarning umumlashma obrazi sanaladi . Bu xuddi Chingiz Aytmatovning “ Asrga tativlik kun” asaridagi aynan Sobitjon bilan bo`lgan voqealarni eslatadi , albatta. Sobitjon ham o`z otasini unutgan , an`analarga bolta solgan inson sifatida gavdalaniadi , uning aytgan gaplaridan ilm olgan-u, tarbiya topmagan odamni ko`rishimiz mumkin . Bo`rixon va Sobitjon xarakter xususiyatidan bir xil asar qahramonlari hisoblanadi.

Saodat aya dindan kechgan o`g`lidan yuz o`giradi , negaki ona uchun din , milliy urf-odatlar, el - yurtchilik har narsadan ustun turadi . Shuning uchun dilbandidan ko`ngli soviydi

, uni yo`qlikka topshiradi , endi ona sahar namozida o`g`lini eslamay qo`yadi. Hikoyada Saodat ayaning hayot mazmuni , bu dunyoga kelish va ketish hodisasini juda tabiiy - muslimona anglagani , farzandlari va nevaralarini chaqirib , ularga qilgan vasiyatida ham yaqqol namoyon bo`ladi .

Qumri asarda baxti qora bo`lgan farzand sifatida tasvirlanadi . U onasini juda yaxshi ko`rardi va hatto ba`zan onasini Qorako`zdan rashk qilardi , itni yoqdirmasdi. Biroq ona o`limidan so`ng Qumri itning ko`zlaridan tirqirab oqayotgan yoshni ko`rib , yurak - bag`ri yonib , unga qo`shilib yig`laydi. Qorako`z - Qumri uchun onasidan qolgan eng qimmatbahol yodgorlik va barcha xotiralar ham shu it bilan bog`liq edi. So`nggi yillarda negadir qiz farzand tug`ilsa , otalar uchun bu bir ko`rgilikdek qarshi olinishi jamiyatimiz fojiasidir , negaki qiz bola xalqning tarbiyachisi , undan millat uchun ustun bo`la oladigan farzandlar dunyoga keladi va qiz farzand o`g`il bolalarga nisbatan ota-onaga ancha mehribonroq bo`ladi , ularni jannatga boshlovchi vosita hisoblanadi. Hadisda shunday deyilgan :“ Agar bir insonning uchta qizi bo`lsa , har birini ta`minlab , ularga mehr bergan bo`lsa , o`sha ota jannati sanaladi. Agar ikkita va hatto bitta qizi bo`lsa ham , bu holat mos keladi”. Asarda Qumri ham akasini kuzatish uchun chiqib ketadi, ammo yarim yo`lda yuragi g`ash tortib , mashinadan tushib qaytib keladi va uyda onasining tobi qochib qolgan bo`ladi , demak, uning onasiga bo`lgan muhabbat shu darajada ulug`vorki , ko`ngil ham onani yolg`iz qoldirishga unnamadi.

Hikoyada kampir olamdan o`tgandan so`ng yozuvchi Qorako`zning ruhiyatini yanada chuqurroq anglatish maqsadida asar intihosida itni ayanchli tarzda o`ldiradi va ,tabiiyki , bu holat hikoyaning ta`sir darajasini yanada oshiradi va kitobxon ruhiyatiga cheksiz iztirob soladi .

Asarda milliy qadriyatlarimiz o`zbekona ruhda ko`rsatib o`tilgan . Misol uchun , Bo`rixonning “kokil kestirish ” jarayoni o`zbek oilaviy marosimlariga mansub hisoblanadi. Shuningdek , Bo`rixonning uyga qaytib kelgan chog`ida uning oyog`i ostiga so`yilgan qo`y ham o`zbekchiligidizning yaqqol dalilidir yoki mehmonga kelgan aka-singillar “ mehmon hech qachon qo`li quruq bormasligi kerak “ qabilida ish tutadilar .

Bu Tog`ay Murodning “ Yulduzlar mangu yonadi “ asaridagi to`yga kelgan mehmonlar ham turfa xil sovg`a , buyumlar olib kelishi bilan bir-biriga o`xshaydi. Bundan tashqari , yaxshi yangilik olib kelgan mehmonlarga “sаро kiydirish” marosimini “ Hoji badal “ voqeasi orqali ham ko`rib o`tsak bo`ladi. Bo`rixonga ism qo`yish hodisasi juda qiziq bo`ladi: oftob charaqlab turadi , biroq yomg`ir sharros quyayotganligi , ya`ni bu paytda xalqimiz orasida “ Bo`ri bolalayapti” degan qarash mayjud bo`lganligi uchun shunday ism qo`yilgan .

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak , asarda faqat o`sha davr emas , balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo`lgan mavzular o`ziga xos mahorat bilan , iste`dod bilan qalamga olingan. Ushbu asar butun bashariyat uchun azal-azaldan tamal toshi bo`lib kelayotgan vafo , sadoqat , qadriyatlar , inson va hayvon orasidagi yaqinlik tushunchalarining asl mohiyatini ochib beradi . Said Ahmadning “ Qorako`z majnun” hikoyasi qanchadan qancha yangi asr avlodlarini , insoniyat farzandlarini ezgulikka chorlab , to`g`rilikka boshlaydi .

Ushbu da`vatlar har bir kitob ishqibozlarini befarq qoldirmagay , bu hikoya bundan keyin ham kitobxonlar qalbining tub-tubidan joy olajak ! Zero , ulug` adibning qalamidan to`kilgan ushbu asar adabiyot xazinasining go`zal la'l - u javohiridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. 10-sinf adabiyot. B.To`xliyev , B.Karimov , K.Usmonova. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.
2. To`xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O`zbekiston nashriyoti.Toshkent-2002.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.
4. Imom al - Buxoriy. Al jome' as sahih .Arabchadan A.Abdulloh tarjimasi. Qomuslar bosh nashriyoti. Toshkent - 1992.